**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| “Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| | O‘zbekiston Respublikasida antiretrovirus terapiya samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar majmuasini ishlab chiqish<br> | **Tadqiqotning shakli:** O‘zbekiston Respublikasida antiretrovirus terapiya samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar majmuasini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- OIV-1 fermentlarini kodlovchi genom sohalarini populyasion sekvenirlash asosida O‘zbekiston hududida mavjud virusning genotiplari tavsiflanadi.<br>- ART ning muvaffaqiyatsizligi qayd etilayotgan bemorlarda OIV-1 genotiplari haqidagi ma'lumotlarning tahlili amalga oshiriladi hamda A6 va CRF02_AG subtiplariga mansub viruslarda uchraydigan mutasiyalar profillari taqqoslanadi.<br>- O‘zbekistonda uchraydigan OIV-1 ning rekombinant shakllari tavsiflanadi.<br>- ART samaradorligiga va rezistentlik mutasiyalari shakllanishiga pasientlar xayrixohligining ta’siri baholanadi.<br>- rezistentlik mutasiyalari shakllanishiga OIV-1 genetik variantlarining ta'siri baholanadi.<br>- A6 subtipi va CRF02_AG rekombinant shaklining ART samaradorligi bilan bog‘liqligi baholanadi.<br>- O‘zbekistonda rezistent viruslarning tarqalganligini baholanadi va davolanishayotgan bemorlarda kuzatilayotgan samarasizlik sabablari aniqlanadi.<br>- tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish Markazi “OIV infeksiyasi muammolari” kafedrasi tinglovchilari uchun O‘quv dasturi, o‘quv qo‘llanma va amaliyotdagi mutaxassislar uchun uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqiladi.<br>- A6 subtipi va CRF02_AG rekombinant shakli nukleotidlarining barcha ketma-ketliklari filogenetik tahlil etiladi hamda olingan natijalar asosida filogenetik manzarani aks ettiruvchi xarita tayyorlanadi.<br>- O‘zbekistonda bemorlarning epidemiologik, demografik, klinik-laborator hamda Xalqaro Stanford database bilan taqqoslana oladigan genotipik tavsifini aks ettiruvchi ma'lumotlar bazasi yaratiladi.<br>- muayyan ART sxemasining har bir bemordagi samaradorligini tezkor va aniq baholashga imkon beradigan tekshiruv usuli ishlab chiqiladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. |
| **Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1500 barobari** | | |

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart**

**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| **“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi** | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| | OIV infeksiyasi bo‘lgan bemorlarda pnevmosist pnevmoniyasini tashxislash va davolashda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish  | **Tadqiqotning shakli:** OIV infeksiyasi bo‘lgan bemorlarda pnevmosist pnevmoniyasini tashxislash va davolashda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- OIV infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda pnevmosist pnevmoniyasi tarqalishi, chastotasi, ART ning unga ta’siri, qondagi CD4+ limfotsitlar darajasi va boshqa omillar baholanadi.<br>- kuzatilgan bemorlarda opportunistik infektsiyalarning etiologik tarkibida pnevmosistozning ulushi aniqlanadi.<br>- klinik va laborator usullar yordamida Fargals preparatining pnevmosist pnevmoniyasi bilan og‘rigan bemorlarni davolashdagi samaradorligi baholanadi.<br>- OIV infektsiyasi bilan kasallangan bemorlarda pnevmosist pnevmoniyasini tashxislash va davolashning optimal algoritmlari shakllantiriladi.<br>- opportunistik pnevmosist pnevmoniyasi bilan asoratlangan OIV infektsiyali bemorlarni davolash va ularning o‘limini kamaytirish borasida samarali yondashuvlar ishlab chiqiladi.<br>- tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish Markazi “OIV infeksiyasi muammolari” kafedrasi tinglovchilari uchun O‘quv dasturi, o‘quv qo‘llanma tayyorlanadi.<br>- amaliyotdagi mutaxassislar uchun pnevmosist pnevmoniyasini tashxislash va davolash borasida uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqiladi.<br>- mahalliy biotexnologik Fargals preparati yordamida pnevmosistozni davolashning arzon va import o'rnini bosishga yordam beradigan original usuli ishlab chiqiladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. |
| **Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1500 barobari** | | |

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart***